

## O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA IKKI KOMPONENTLI FRAZELOGIZMLARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Yulduz Allanazarova

Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

### ANNOTATSIYA:

Ushbu maqola frazeologiya sohasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda asosan o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi ikki komponentli frazeologizmlar struktur-semantik jihatdan tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** frazeologiya, frazeologizm, ibora, frazema, component, ikki komponentli.

### ABSTRACT:

The article is devoted to the field phraseology, which should be one of the lexicology, in which analyzes two-component phraseologisms in Uzbek and Karakalpak languages from a structural-semantic point of view.

**Keywords:** phraseology, phraseological units, phrase, component, two components.

Hozirgi paytda dunyo tilshunosligining diqqat markazida turli xil mavzular bilan birga iboralar tizimini o‘rganish dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Aynan shu davrda zamonaviy tilshunoslik fanida yanada keng ma‘no kasb etgan va chuqurroq o‘rganilayotgan “frazeologik iboralar”ni topish mushkul vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbek va qoraqalpoq tillarida frazeologik iboralarning turli xususiyatlarini tashqi shakliga qarab tasnif qilish orqali ham aniqlash mumkin. Bu tasnifda ko‘proq frazeologik iboralarning tarkibidagi so‘zlar soniga qarab e‘tibor beriladi. Tasnif natijasida iboralar tabiatiga ko‘ra necha so‘zdan tashkil topganligini aniqlash mumkin. Ko‘pgina tilshunoslar frazeologik iboralar faqat ikki so‘zdan ortiq bo‘ladi degan fikrlarni bildiradilar. Ammo kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklar faqat ikki, uch va undan ortiq so‘zlardan iborat bo‘ladi. Ammo ayrim tilshunoslar bir so‘zdan iborat iboralar ham bor deb fikr yuritadilar.

Jumladan, professor A.Jafarovning fikricha, bir so‘zdan iborat iboralar idiomatik iboraning eng yuqori taraqqiyot bosqichida hosil bo‘ladi. Bu turdagi iboralar qo‘shma so‘z yoki yakka so‘z bilan ifodalanadi, ular to‘g‘ridan to‘g‘ri fikrni anglata olmasligi jihatdan ham qo‘shma so‘zlardan farqlanadi. To‘g‘ri bir so‘z orqali ham



idiomatik ma'no anglashiladi. Lekin bunday so'zlarni ibora deyish qiyin. Chunki ibora so'zlar birikmasidan iborat bo'lishi kerak. Bu haqda V.Vinogradov, A.Abakumov, A.Shaxmatovlarning fikrlari diqqatga sazovordir. Idiomatik so'zlar faqat yolg'iz so'zlardan tashkil topib, idiomatik ma'no anglatadi. Lekin ibora aks ettirgan xususiyatlarni anglata olmaydi. Akademik V.V.Vinogradovning aytishicha, frazeologik birliklarning taraqqiyoti frazeologik butunlikdan boshlanib, frazeologik qo'shilmalarga aylanishi kerak [1].

O'zbek va qoraqalpoq tillari iboralarga juda boy til hisoblanadi. Iboralarning ko'pchiligi nafaqat tilimizning boyligini, balki xalqimizning turmush tarzi, kundalik hayoti, nutq madaniyatidagi o'ziga xos xususiyatlarini ham ko'rsatib turadi.

Ibora - tilimizning lug'at tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biridir. Ular ikki va undan ortiq so'zning ko'chgan ma'nolari asosida tarkib topgan lug'aviy birlik bo'lib, xuddi so'z kabi lug'aviy ma'noni anglatadi. Masalan, xamirdan qil sug'urganday iborasi "osonlik bilan", "qiyinchiliksiz" ma'nosini, ko'ngil bermoq iborasi "sevmoq" ma'nosini, qo'y og'zidan cho'p olmagan iborasi "yuvosh" ma'nosini bildiradi. Xuddi so'z kabi yaxlit bir ma'noni anglatadigan bunday til birligi frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi. Ibora - frazema frazeologik birlik sifatida tilshunoslikning frazeologiya bo'limida o'rganiladi. Ibora tuzilishiga ko'ra, ya'ni birdan ortiq so'zdan tashkil topishi bilan so'z birikmasi yoki gapga o'xshab ketsa ham, nutq birligi sanalgan bunday birliklardan tamoman farq qiladi va lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi. So'zlarga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlar iboralarga ham xosdir. Iboralar so'z birikmasi yoki gaplar kabi har gal nutqning o'zidagina yuzaga kelmaydi, balki ular, xuddi so'zlar kabi tilda tayyor holda bo'ladi. Shuning uchun iboralarni turg'un birikmalar hisoblaymiz. Chunki ibora tarkibidagi so'zlarni ajratib bo'lmaydi. Iboralar gapda bitta so'roqqa javob bo'lib, bitta bo'lak vazifasida keladi. Demak, iboralar nutq hodisasi emas, balki til hodisasi hisoblanadi: aravani quruq olib qochmoq, kovushini to'g'rilab qo'ymoq, tomdan tarasha tushganday, kapalagi uchib ketdi kabilar tilda tayyor holdagi birliklardir.

O'zbek va qoraqalpoq tillarida frazeologizmlarning struktur tiplari, qurilish modellarini tadqiq qilish va ma'lum tizimga solish masalasi hali maxsus o'rganilmagan. O'zbek va qoraqalpoq tillarida frazeologizmlar struktur jihatdan ikki, uch va ko'p komponentli bo'lib keladi. Ular tarkibidagi komponentlarning miqdoriga qarab uch guruhga bo'lib o'rganiladi. Ikki komponentli frazeologizm: ot+fe'l qolipidagi ko'ngil bermoq iborasi "sevmoq" ma'nosini bildiradi. Uch komponentli frazeologizm: ot+ot+fe'l qolipli xamirdan qil sug'urganday iborasi,



“osonlik bilan”, “qiyinchiliksiz” ma’nosini bildiradi. Ko‘p komponentli frazeologizm: qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan iborasi “yuvosh” ma’nosini bildiradi. Ikki komponentli frazeologizmlar tarkibiga ko‘ra qisqa, ixcham bo‘lib, miqdoran uch va ko‘p komponentli frazeologizmlarga nisbatan ancha ko‘p. Frazeologizmlar komponentlar sonining kam bo‘lishi, ularning qo‘llanish doirasining yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Zero ularni qo‘llashdan maqsad - fikrimizni aniq, ixcham tarzda ifodalash. Ikki komponentli frazeologizmlarda son jihatdan fe’l modellari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ikki komponentli fe’l frazeologizmlarning birinchi komponenti ma’noli so‘z turkumlarining barcha bu frazeologizmlar tashkil etadi. Bunday tuzilishli frazeologizmlar tarkibidagi ot va fe’llarning ma’no va grammatik jihatdan birikishi quyidagi yo‘llar orqali amalga oshadi. Egalik shaklini olgan ot+fe’l: Ayađı awırlasıw-kasal,bemor [2]. Bası pispew - bir birini tushunmaslik; ópkesi óshıw.

Ichagi uzilmoq - qotib-qotib kulmoq degan ma’noni bildiradi: Kulaverib, ichagim uzildi. (I.Rahim. “Olovqor”). Ichagi uzilmoq frazeologizm omonim bo‘lib, “juda och qolmoq” degan ma’noni ham bildiradi: Ol, oshingni ich, ichaging ham uzilib ketgandır. (H.Nazir “Rashk”).

Ichi achimoq - birovni ayamoq degan ma’noni bildiradi. Varianti: ichi achishmoq. Bu frazeologik birlikning sinonimlari mavjud: joni achimoq, yuragi achimoq kabi. Joni chiqmoq - o‘lmoq so‘nggi marta nafas chiqarmoq degan ma’nolarni bildiradi. Bu frazeologizmning sinonimlari mavjud: joni uzilmoq, jon bermoq kabi. Joni chiqmoq frazeologizmi omonim bo‘lib, “g‘azablanmoq, darg‘azab bo‘lmoq” degan ma’nolarni ham bildiradi.

Egalik shaklini olgan ot+sifat: Ayađı awır - homilador; Bası bós - turmush qurmagan; Ayađı jeńıl – chaqqon.

Didi baland - go‘zallikni, nafislikni his qilishi o‘ta taraqqiy qilmoq; Diydası qattıq - berahm, bemehr; Zoti past - oddiy nasl-nasabga mansub, ajdodlari obro‘-e’tiborga ega bo‘lmagan bu frazeologizmning “tagi past” varianti ham mavjud. Bosh kelishik+fe’l: Nan pispew - natijasizlik degan ma’noni bildiradi :Shayqımız nan pisire almay qayttıq. Al Tóreniyaz ári-beri ótırıp, bir neshe máртеbe ım qađıp, qızdı aytqanına kóndiriwge urıp baqqan menen, pispeytuđının bildi... (T.Qayıpbergenov).

Bet alıw - ma’lum bir yo‘nalish tomon bormoq : ...jaqtı ádewir jerge shekem jađalap kelp “wádeli jerge qaray bet aldı. (I.Yusupov).

Mańlay bermew - baxtsizlik, ishi yurishmaslik degan ma’nolarni bildiradi: Mađan keshe “mańlay bermegen, tańlay bergen!” (K.Sultanov).



Kek saqlamoq – yomonlik ko‘rgani dili og‘rigani sababli ginaxon bo‘lib yurmoq; Ko‘z ilg‘amas - bilinar-bilinmas, mayda degan ma‘noni bildiradi :Ko‘z ilg‘amas qurt-qumursqalarning, chigirtkalarining chirillashi go‘yo allalaydi. (S.Abdugahhor). Bu frazeologik birlik omonim bo‘lim cheksiz, poyoni ko‘rinmaydigan degan ma‘nolarni ham bildiradi: Bir tomoni - ko‘z ilg‘amas cho‘l, bir tomoni - yashil dalalar. (S.Ahmad).

Tushum kelishigidagi ot+fe‘l:

Yeziwin jıyıw - kulib o‘tirgan odam birdan kulmay qolishi: “Jambas máselesi” yesine tuskeni de sol, keńkildewge yernin qayımlap otırǵan molla yeziwin jıya qoydı. (Sh.Seytov).

Juzin salmaw - biror kishiga yalinmaslik [3].

Ko‘zini bo‘yamoq - aldamoq, laqillatmoq degan ma‘nolarni bildiradi. Uning varianti ham mavjud: ko‘zni bo‘yamoq, ko‘z bo‘yamoq kabi.

Og‘zini moylamoq - moyil qilish maqsadi bilan oldindan sovg‘a-salom bermoq, ziyofat qilmoq degan ma‘noni bildiradi. Bu frazeologizmning varianti mavjud: og‘iz-burnini moylamoq : Savdogar xalqi molparast,dunyoparast bo‘ladi, kelgan zamona Teshaboyga tog‘ etagidagi yangi bog‘ini in‘om etib, og‘zini moylab qo‘ysa-chi? (M.Ismoilij).

Zahrini sochmoq - zug‘um qilmoq, g‘azab bilan gapirmoq degan ma‘nolarni bildiradi. Bu frazeologik birlikning varianti mavjud: zaharini sochmoq, zahar sochmoq kabi.

Jo‘nalish kelishigidagi ot+fe‘l:

Awızǵa ilinıw - bu frazeologik birlik omonim bo‘lib, birinchi “biror kishi haqida xalqning yaxshi yoki yomon gaplar aytishi” degan ma‘noni bildiradi: Sarkopta awız ilinip gáp bolıp jurgen Orazbay Jumanıyazovtı ata-anası, aǵası, jora-joldas, qurbı-qurdasları usılayınsha xoshlasıp frontqa jóneltken yedi. («Jetkinshek» gazetası).

Ikkinchi ma‘nosi biror mahsulotning pishib yetilishini bildiradi : Aq jigıt-aw, qarshaday shaǵınnan kózge túsip, awızǵa iline bermeseń-o bawırım! (K.Sultanov).

Atqa minıw - boshliq, amaldor bo‘lmoq degan ma‘noni bildiradi: Yarım xan aǵasınan dámegóy bolıp, sol jılları Qulımbette atqa mindi (K.Sultanov).

O‘rin-payt kelishigidagi ot+fe‘l:

Dúzde jatar - mahkam, chidamli degan ma‘noni bildiradi. Bu frazeologik birlikning varianti ham mavjud: qarda jatar kabi: Birewge kúshlisi, yekinshige aqıllısı, ushinshige qız minezlisi, tórtinshige dúzde jatardı kerek (T.Qayıpbergenov).

Kelege kelıw - avvalgi holiga qaytmoq, o‘sib-unmoq degan ma‘nolarni bildiradi.



Ko'zga surtmoq - noyob topilishi qiyin bo'lgani sababli ortiq darajada qadrlamoq. Bu frazeologik birlikning varianti ko'zga surtmoq: Bizning neft parmalash texnikamiz dunyoda yagona. Uni hamma joyda ko'zga surtguday bo'ladilar. (I.Rahim "Olovqor").

Pinakka ketmoq - bu frazeologizm ikkita ma'noda qo'llaniladi. Birinchisi "uxlab qolmoq" ma'nosida, ikkinchisi "uylanish holatida bo'lmoq"; sinonimi xayolga cho'mmoq.

Chiqish kelishigidagi ot+fe'l:

Awzınan túskendey - xuddi o'ziga o'xshamoq degan ma'noni bildiradi. Awzınan túskendey sóylegen sózi, Júzleri almaday nárkistey kázi («Máspatsha» dástani). Ishinen tınıw - ko'rgan-bilganini hech kimga aytmay ichida saqlamoq degan ma'noni bildiradi: Onı úydegi basqalar sezbege menen Miyrigúl ishinen sezip, biraq sırtına shıgára almay ishinen tındı (M.Dáribaev).

Kuchdan qolmoq - jismoniy quvvati eng past me'yorga yetmoq degan ma'noni bildiradi. Bu frazeologik birlikning antonimi kuchga to'lmoq: Qurbon ota yana necha yillar eshonning xizmatida bo'lib bevaqt kuchdan qoldi. (A.Qahhor).

Jigardan urmoq - bu frazeologik birlik salbiy ma'noda qo'llanilib, "o'ziga shaydo qilib qo'ymoq" degan ma'noni bildiradi. Varianti: jigaridan urmoq, jigar-bag'ridan urmoq; sinonimi: yuragidan urmoq [4].

Shunday qilib, frazeologizmlar tuzilishini o'rganish natijasida ular tarkibidagi komponentlar sonining ortishi bilan qo'llash darajasi sustlashadi, aksincha, frazeologik birliklar tarkibidagi komponentlar soni kam bo'lsa, ularning qo'llanish darajasi yuqori bo'ladi. Shuning uchun ham turkiy tillarda, shu jumladan o'zbek va qoraqalpoq tillarida ham frazeologik birliklar miqdor jihatdan eng ko'pi bilan ikki komponentli, keyin uch komponentli, eng kam ko'p komponentli frazeologizmlar hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari. Fil.fan.diss. avtoref. -Toshkent,1999. 34-bet
2. Yeshbaev J. Qaraqalpaq tiliniń qisqasha frazeologiyaliq sózligi. -Nókis, 1985. 42-bet
3. Paxratdinov Q., Bekniyazov Q. Qaraqalpaq tiliniń frazeologizmler sózligi. - Nókis,2018. 72-bet.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. -Тошкент, 1978. 93-бет.

